UDK:913.677 DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss1_2t/a37

ANDIJON VILOYATIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI TOMONIDAN SIKILLI ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВА ЦИКЛИ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫМИ КЛАСТЕРАМИ В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

IMPROVING THE ORGANIZATION OF PRODUCTION CYCLES BY COTTON AND TEXTILE CLUSTERS IN THE ANDIJAN REGION

Isayev Akbarjon Abdulxamidivich[1]
[1]Andijon davlat universiteti, g.f.n. dotsent

Ergashev Sirojiddin Abdug‘offorovich[2]
[2]Andijon davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, Andijon viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlaridagi ishlab chiqarish sikllarini tashkil etish holati yoritilgan va uning sabablari o‘rganilgan. Natijada viloyatdagi paxta-to‘qimachilik klasterlaridagi muammolari va ularning yechimlari keltirilgan

Аннотация

В данной статье освещается состояние организации производственных циклов в хлопчатобумажных кластерах Андижанской области и исследуются его причины. Результатом являются проблемы хлопчатобумажных кластеров в регионе и их решения

Abstract

In this article, the state of the organization of production cycles in cotton-textile clusters in the Andijan region is covered and its causes are studied. The result is the problems of cotton-textile clusters in the region and their solutions

Kalit so‘zlar: *paxta xom ashyosi, o‘sish qutblari, trikotaj mahsulotlari, ip-kalava, paxta tolasi, transport xarajatlari, ishlab chiqarish sikli.*

Ключевые слова: *хлопковое сырье, полюса роста, трикотажные изделия, пряжа, хлопковое волокно, транспортные расходы, производственный цикл.*

Key words: *cotton raw materials, growth poles, knitting products, yarn, cotton fiber, transportation costs, production cycle.*

KIRISH

Andijon viloyati sanoati fundamental mashinasozlik yoki og‘ir sanoati korxonalarini tashkil etish uchun tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillar yetarli emas. Bu holat viloyat tumanlarida yengil sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish kerakligini ko‘rsatadi. Boy xom-ashyoga va yetarli ishchi kuchiga ega bo‘lgan Andijon viloyatida yengil sanoat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 397-son qarori[1] chiqdi. **Chet el va davlatimiz ichidagi sarmoyadorlar o‘z sarmoyalarini bugungi kunga qadar asosan, yirik markazlarga qo‘yishga intilib keldi. Bu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy holat, biroq endilikda chetda qolayotgan hududlarga sarmoya tikish va bu hududlar imkoniyatlaridan foydalanish davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» 2022-yil 2-yanvardagi PF-60-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Andijon viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning «o‘sish nuqtalari»ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori chiqdi[2]. Qarorning 4-bandi ko‘ra uchinchi ilova ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, har bir tuman va shaharlarni “drayver” sohalari belgilab olindi. Viloyatimizning Xo‘jaobod, Paxtaobod, Oltinko‘l, Izboskan, Qo‘rg‘ontepa, Ulug‘nor, Jalaquduq, Bo‘ston, Andijon shahrining ixtisoslashuvida to‘qimachilik sanoati lokomativ tarmoq sifatida kiritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maykl Yujin Porter fikri bo‘yicha, hududiy klasterlarni shakllantirish uchun quyidagi omillar talab qilinadi: cheklangan geografik hududda barcha klaster ishtirokchilarining konsentratsiyasi; mazkur mintaqada, klasterni shakllantirishga va korxonalarni qo‘llab quvvatlash va xizmat

ko‘rsatishga yordam beradigan raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lgan yetakchi kompaniyalarning mavjudligi; ishtirokchilar o‘rtasida hamkorlik muvofiqlashtirish; klaster tarkibiga, mahalliy darajada hamkorlik qilish orqali mintaqalararo darajada raqobatlashish uchun, klasterning "yadrosi"ni tashkil etadigan ilmiy-tadqiqot institutlari, ta’lim muassasalari, turli professional va jamoat birlashmalarini olishi mumkin [3,4,5].

Hududiy klasterga keyinchalik juda ko‘p nazariyotchi va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan ta’rif beriladi va bu ta’riflar asoslandi. Keltirilgan ta’riflar ba’zida bir-birini to‘ldirsa, ba’zida bir-biriga mos kelmaydi. Bunga sabab hududdagi tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlar bir xil bo‘lmaganligidir. S.Rosenfeldning so‘zlariga ko‘ra, klasterlarni yaratish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish va kam rivojlangan hududlar strategiyasining asosidir[9]. G.A.Yashevoy tarifiga ko‘ra klaster bu-bir ilmiy-ma’rifiy markazi atrofida birlashgan geografik (maxsus xizmatlar, shu jumladan, yetkazib beruvchi, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar, shu jumladan) kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni, bir-biriga munosabatlari bilan bog‘liq to‘ldiruvchi bir tarmoq tashkilot [5]. A.G.Granbergning ta’rifi soddaroq va to‘liq emas, klaster asosi bo‘lgan hudud omili e’tibordan chetda qolgan klaster bu – bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan korxonalar guruhi[5]. M.Galushkinaning ta’rifi esa klasterni to‘liq izohlamagan klaster – bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan firmalar guruhi[9]. Yana bir rus olimi N.V.Gorodnova klasterga ta’rif keltirdi klasterlar maxsus sohalar bo‘yicha bitta geografik hududda faoliyat yuritayotgan, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiruvchi kompaniyalar, institutlar guruhi [9]. L.L.Naumova esa klaster tuzilmasini yana bir jihatini asosladi uning fikriga ko‘ra klaster – hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog‘langan tovar va xom ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrlashgan majmua [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Andijon **v**iloyatida klasterlarni tashkil etish va to‘g‘ri joylashtirish katta iqtisodiy samaraga ega ekanligi kundek ravshan hamda mintaqada iqtisodiy-ijtimoiy infrastruktura ob’yektlarini rivojlanishda, aholini ish bilan ta’minlashda muhim iqtisodiy yo‘l hisoblanadi.

Klaster tashkil etish nazariyasiga ko‘ra bir hududda bir-biri bilan bog‘liq tarmoqlarning mujassamlashuvi katta samara beradi. Ya’ni hududiy birlikka katta e’tibor berish asta-sekinlik bilan hudud imkoniyatlaridan kelib chiqib to‘liq siklli ishlab chiqarishga intilish lozim. Shunda bu klaster bugungi raqobat muhitida yengib chiqadi va rivojlanadi. Viloyatda jami 15 ta klaster faoliyat olib borayotgan bo‘lsa ularning aksariyati hali boshlang‘ich bosqichda, ya’ni mujassamlashuv darajasi past.

Quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, Andijon, Izboskan, Bo‘ston tumanlarida faoliyat olib borayotgan “Sohib Omad Barakasi” MChJ va “Sayyora Favvorasi” MChJ lar ishlab chiqarish siklida o‘rtadagi to‘qimachilik va matoga ishlov berish bo‘g‘ini shakllanmaganligi ko‘rishimiz mumkin, bu holatni to‘qimachilik korxonalarini tashkil etish birmuncha ko‘p mablag‘, rivojlangan iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmani hamda malakali mehnat resurslarini talab etishi bilan izohlash mumkin. Yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish lozim ma’lum bir hududda to‘liq siklli va keng tarmoqli ishlab chiqarish korxonalarini tezlik bilan tashkil etish bozor tamoyillariga to‘g‘i kelmaydi. Baliqchi tumanidagi “Tetratex MChJ”, Oltinko‘l tumanidagi “Qadir textile Cluster” esa endi faoliyatni boshlagan klasterlar sirasiga kiradi, shu sababdan bu hududlarda ham siklli ishlab chiqarish quyi bosqichda. Xo‘jaobod tumani nafaqat viloyatimizda balki respublikamizda ko‘zga ko‘ringan yengil sanoat markazi hisoblanadi “Samo” brendi ostida to‘liq siklli ishlab chiqarishga ega kooperatsiya mavjud. Bu kooperatsiya bilan hamkorlikda va mintaqada kuchli raqobat muhitida “Xo‘jaobod Fayz-M” MChJ tashkil topdi, bu klaster ko‘proq dehqonchilik qilishga emas paxta xom-ashyosini to‘liq qayta ishlashga urg‘u berdi. Bunga sabab tumanda yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda barcha sharoitlar mavjud.

Ulug‘nor tumanidagi “Vodiy Sanoat Faxri” va “Asaka Textile” klasterlari hamkorlikda ish olib borib to‘liq siklli ishlab chiqarishni amalga oshirmoqda. Ammo aksariyat klaster birlashmalarida tayyor trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish bo‘g‘ini bor, lekin to‘qimachilik bo‘yoq sexlarini yo‘qligi klasterlarda iqtisodiy samaradorlik talab darajasida emasligini ko‘rsatib turibdi.

Paxtaobod tumanida ikkita klaster birlashmalari faoliyat olib borib ular orasida hamkorlik tufayli xom-ashyoni deyarli to‘liq qayta ishlashga erishilgan. Viloyatimizda faqatgina Jalaquduq va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida to‘liq siklli ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan va xom-ashyoni qayta ishlash borasida muvozanat mavjud.

Andijon viloyati paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan sikill ishlab chiqarishni tashkil etish holati (2022- yil)

№	Hududlar nomi	Klaster nomi	Tola ishlab chiqarish (tonna)	Toladan kalava ip ishlab chiqarish (tonna)	Ip kalavadan mato ishlab chiqarish (tonna)	Matoni bo‘yash (tonna)	Matodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish (tonna)	Chigitni qayta ishlash (tonna)
1	Andijon, Izboskan	Sohib Omad Barakasi	12000	10500			4500	30000
2	Baliqchi	Tetratex	20400					
3	Baliqchi, Qo‘rg‘ontepa	Skorton Textile	15300	40000				
4	Buloqboshi, Xo‘jaobod	Xo‘jaobod Fayz-M	5500	13000	5400		7300	8000
5	Bo‘ston	Sayyora Favvorasi	16988	5780			3000	
6	Jalaquduq, Ulug‘nor	Asaka Textile		16000	6000	12000	5100	
7	Izboskan	Best Textile	5100	3600			2000	30000
8	Ulug‘nor	Vodiy Sanoat Faxri	11400	5000		9593		
9	Marhamat	Marhamattextile	7000	2000			2000	
10	Oltinko‘l	Qadirtextile Cluster	10200	5000			3000	
11	Paxtaobod	Oltin Mato Tex	6100	5100	1750	3400		
		Al-Xakim	3100		1500	1600	1900	
12	Shahrixon	Saxovat Tex	12000	12000			7000	3500
13	Jalaquduq	Al’yortex	13600	7500	12000	1000	7000	5000
14	Qo‘rg‘ontepa	Khantex Group	16500	9800	4140	3385	2100	72000
15	Viloyat bo‘yicha:		148400	135300	30790	39978	44900	180000

Manba: Andijon viloyati qishloq xo‘jaligi bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, viloyatimizda yaratilgan paxta tolasining 91% ip-kalava holatiga keltirildi, ammo mavjud 135300 tonna ip-kalavaning 22.7% mato shakliga keltirilayotganligi bu borada qilinadigan ishlar talaygina ekanligini ko‘rsatmoqda. To‘g‘ri qolgan 87.3% ip-kalava boshqa to‘qimachilik birlashmalari tomonidan qayta ishlanmoqda hamda ip-kalava holatida chetga eksport qilinmoqda. Matoni bo‘yash va qo‘shimcha pardozlash ishlari ham talab darajasida emas, 135300 tonna mahsulotning 29.5% bo‘yalmoqda, tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish esa 33.1% ni tashkil etmoqda. Klaster ta’sischilari bilan suhbatlashilganda bo‘yoq sexlarini tashkil etish katta sarmoyalar talab etmasligini, ammo hamma tumanlarda ham kanalizatsiya tizimi talab darajasida emasligi tufayli bo‘yoq sexlarini tashkil etishda qiyinchilik bo‘layotganligini aytib o‘tdilar. Tayyor trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda esa to‘qimachilik bo‘g‘ini talab darajasida emasligi ta’sir ko‘rsatmoqda, trikotaj mahsulotlari uchun mato boshqa hududdan yoki chet davlatdan olib kelinmoqda.

Yog‘-moy va chorva uchun ozuqa ishlab chiqarish viloyat klasterlarida ajralmas bo‘g‘in bo‘lishi lozim. Bu birinchi galda umumiy paxta xom- ashyosining 34% tola holatiga o‘tsa 66% ya’ni 288070 tonna chigit holatiga o‘tadi, imkon darajasida bu xom-ashyo tashilmasligi kerak degani. Tashish katta xarajatlarni talab qilishi bilan birga hududiy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Viloyat klasterlar tomonidan umumiy ajratilgan chigitning 68% qayta ishlanmoqda. Yuqorida aytib o‘tganimizdek har-bir tumanida bo‘lmasa-da bir-biriga yaqin hududlarda yog‘-moy zavodlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi galda aholini ish bilan ta’minlash, iqtisodiy samaradorlikka erishish qolaversa, chorva mollarini arzon ozuqa bilan ta’minlashda muhim. Andijon viloyatidagi har-bir paxta-to‘qimachilik klasterning tarkibida chorva fermalari bo‘lishi lozim bu birinchi navbatda go‘sht va sut degani ikkinchi navbatda esa mahalliy o‘g‘it degani bu bilan sikl shakllanadi. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, viloyatimiz janubi-g‘arbidagi Ulug‘nor, Bo‘ston, Baliqchi tumanlarida yog‘-moy zavodi qurish lozim chunki bu tumanlar katta maydonga ega ekanligini eng yaqin yog‘-moy zavodigacha bo‘lgan masofa 38 kilometrdan kam emas bundan kelib chiqib bu bo‘g‘inni tashkil etish zarurat hisoblanadi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishni birinchi galda bozor mexanizmlariga tashlash kerak ya’ni talab va taklif qonunlari orqali hal etish lozim. Shu sababdan viloyatimizdagi klasterlar tomonidan 2022-2023-yillarda hududlar iqtisodiy-ijtimoiy qiyofasini o‘zgartirish, aholi bandligini ta’minlash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan va bu rejalarni katta qismi amalga oshirildi.

XULOSA

Andijon viloyatida tashkil etilayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etishda tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillarni inobatga olib joylashtirish juda muhim. Tashkil etilgan klaster birlashmalarini davlat tomonidan ilk bosqichlarda qo‘llab quvvatlash va sekinlik bilan qo‘llab quvvatlashni kamaytirib borish lozim. Bundan maqsad, klasterlar erkin raqobat muhitiga moslashib borishi kerak. Klasterlar tashkil etish nazariyasiga ko‘ra birlashmaning bir qancha o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi. Ulardan biri, to‘liq siklli ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va hududiy birlikda joylashishdir. Shundan kelib chiqib viloyatdagi paxta-to‘qimachilik klasterlari hali shakllanish bosqichida ayniqsa to‘qimachilik bo‘g‘inida qilinadigan ishlar talaygina.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 397-son qarori 22.06.2020-yil

2. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori,21.04.2022-yil 204-son 3. Портер М.Э. Конкуренция: Пер. с англ. / Майкл Портер. – М.: Вильямс, 2003. – 605 с.

4. Пилясов А. Лучшая практика формирования территориальных инновационых систем регионах России // Синергия пространства региональные инновационные системы, кластеры и проекты и знания. Москва-Смоленск.,2005.46-47.

5. Захидов Ғ. Ўзбекистон енгил саноатида ишлаб чиқаришни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш самарадорлиги. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори. дисс. автореф. Т.2017

6. Хакимов З. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини ошириш йўллари. Монаграфия. Т. “Иқтисодиёт-Молия” 2017. 54-56.

7. Марков Л.С. (2007) Проблемы реализации кластерной политики в России // Научный эксперт. №4. (Markov L.S. (2007) Problems of Cluster Policy Implementation in Russia // Scientific Expert. No. 4.)

8. Солиев А.С., Комилова Р.Қ., Янчук С.Л., Жумаханов Ш.З., Ражабов Ф.Т. Иқтисодий ижтимоий география. – Тошкент, Ношир, 2019. – Б. 69-70 б.

9. Пахомова И.Ю. Модель «тройной спирали» как механизм инновационного развития региона // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия: Экономика. Информатика. – 2012. №7(126). Том 22.